

3.5.Neft maxsulotlarining narxi, temir yul harajatlari va korxonaning ustama narxi o'zgargan taqdirda ushbu shartnoma va spesifikasiyaga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

#### 4. QABUL QILISH TARTIBI

4.1.Neft maxsulotlarining mikdori va sifati bo'yicha «Iste'mochi» «Ishlab chiqarish texnika va xalq iste'moli mollarini miqdor (P-6) va sifat (P-7) jixatidan qabul qilib olish tartibi to'g'risida yo'riknomaga hamda boshqa normativ hujjatlarga asosan qabul qilib olinadi.

#### 5. MAXSULOT SIFATI

5.1. Etkazib beriladigan maxsulot sifati GOST 1510-85 davlat standartlari va texnik shartlariga mos bo'lishi xamda bu maxsulot ortish va kuzatuvchi xujjalarda qayd etilishi lozim.

#### 6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1 «Ta'minotchi» neft maxsulotlarini etkazib berish muddatlarini kechiktirganligi va o'z muddatida etkazib bermaganligi uchun «Iste'mol»chiga majburiyatlar bajarilmagan qismi ustidan 0,5 foiz miqdorida penya to'laydi, lekin to'lanadigan penyaningumumiyligi miqdori etkazib berilmagan neft maxsulotlari qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim. Penya to'lash, shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni neftmaxsulotlarini kechiktirib yoki etkazib berilmaganligi oqibatida yuzaga kelgan zararni to'lashdan ozod etmaydi.

6.2.Amaldag'i qonunchilik va xo'jalik shartnomasi, standartlar, texnik shartlar. Sifat talabi, turlari va assortimentlari bo'yicha talabga to'g'ri kelmagan neft maxsulotlari etkazib berilganda «Iste'molchi» neft maxsulotlarini qabul qilishdan bosh tortishi, «Ta'minotchi»dan talab darajasida bo'limgan neft maxsulotlari qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirishi, agar maxsulot qiymati to'langan bo'lsa, belgilangan tartibda to'langan mablag'ni qaytib olish xuquqiga ega. Talab darajasida bo'limgan neft maxsulotlari etkazib berilganligi uchun jarima «Ta'minotchi»dan akseptsiz tartibda undiriladi.

6.3.Shartnomada belgilangan muddatda olinmagan va neft maxsulotlarini olishdan sababsiz bosh torganligi uchun «Iste'molchi» ning harajatlar smetasida mavjud mablag'lar hisobidan «Ta'minotchi» ga olinmagan maxsulotining umumiyligi qiymatini 5 foizi mikdorida jarima to'laydi. Neft maxsulotlari to'lik olinmagan takdirda «Ta'minotchi», jarima undirishdan tashqari, maxsulot olinmaganligi natijasida ko'rgan zarar qiymatini to'lashni talab qilishga xaqli. bunda u mazkur maxsulotning borligiga kafolat berishi lozim.

6.4.Yetkazib berilgan neft maxsuloti to'lovini 60 kunlik kechiktirib yuborganlik uchun «Iste'molchi» hisobidan «Ta'minotchi»ga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan To'lov summasining 0,4 foizi mikdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'limgan miqdorda penya to'laydi.

6.5.Ushbu shartnomada biron-bir shartning bajarilmaganligi uchun javobgarlik belgilanmagan bo'lsa, u holda mazkur bajarilmagan shartlar uchun javobgarlik O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi va «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy xukuiy bazasi to'g'risida»gi konunga binoan qo'llaniladi.

#### 7. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

7.1.Mazkur shartnoma 2022 yil «21» 84629 2022 yil «31» dekabrigacha amalda bo'ladi.

7.2.Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzilib, bir xil yuridik kuchga ega bo'lib hisoblanadi va tomonlarning har biri uchun bir nusxdadan beriladi.

#### 8. SHARTNOMANING QONUNIY KUCHGA KIRISHI

8.1.2014 yil 1 yanvardan amalg'a kiritilgan O'zbekiston Respublikasi "Byudjet kodeksi"ning 122-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldag'i 594-sonli qarorining 6-bandiga asosan byudjet tashkilotlarining tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar bilan shartnomalari, shuningdek buyurtmachilarning Davlat byudjeti mablag'lari hisobiga kapital qurilishga oid shartnomalari majburiy tartibda G'aznachilikda ro'yxatga olinishi shartligi va faqat u amalg'a oshirilgandan keyin kuchga kirishi nazarda tutilgan

#### 9. FORS-MAJOR XOLATLARI

9.1. Agar shartnoma tuzilgandan so'ng ikkala tomon o'z majburiyatlarini g'ayri tabiiy holatlar, suv toshqini, yong'in, er qimirlashi va boshqa tabiiy ofatlar sababli bajarmasa xech qaysi tomon to'la yoki qisman bajarilmagan majburiyatlar uchun javobgar hisoblanmaydilar.

#### 10. QO'SHIMChA SHARTLAR

10.1. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha masalalarni taraflar Fuqarolik Kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risida"gi qonunga amal qilgan xolda tartibga keltiriladi.

#### 11. NIZOLARNI HAL QILISH